

"DEVONU LUG'ATIT TURK" TARIXI

Shokorullah Ghiyasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XI asrda yashab ijod qilgan mashhur olim Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan yaratilgan “Devonu Lug‘atit Turk” asarining yaratilish tarixi, mazmuni, tuzilishi, tilshunoslikka qo‘sghan hissasi va keyingi avlod ilmiy tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilishi keng yoritilgan. Asar o‘z davridagi turkiy tillarning boy leksik va madaniy merosini saqlab qolgan, va bugungi kunda ham qadimiy turkiy tilshunoslikning bebabu manbasi sifatida e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: Mahmud Qoshg‘ariy, Devonu Lug‘atit Turk, tilshunoslik, turkiy tillar, tarix, leksikografiya, O‘rta asr, til tarixi, qadimgi manba.

Har bir xalqning o‘z tarixini anglashda, eng avvalo, uning tili va adabiyoti, yozma manbalari alohida o‘rin tutadi. Bu borada turkiy xalqlarning tarixini o‘rganishda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu Lug‘atit Turk” asari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. XI asrda yozilgan ushbu asar nafaqat lug‘aviy boylikni, balki o‘scha davrdagi turkiy xalqlarning madaniy, ijtimoiy, diniy, etnografik hayotini ham o‘zida mujassamlashtirgan.

“Devonu lug‘atit turk” asari 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida topilgan. U uch tomdan iborat bo‘lib, 1915-1917-yillarda Istanbul shahrida nashr etilgan. Olim S.Mutalliboyev asar tarjimasi ustida samarali ishlab, uni 1960-1963-yillar davomida uch tomda o‘zbek tilida nashr qildirdi. Mahmud Qoshg‘ariyning bu asari kirish va lug‘at qismidan iborat. Muallif asarning kirish qismida “Devonu lug‘atit turk”ning yaratilish sabablari, o‘z ish uslubi, asarning tuzilishi, turkcha so‘zlarning tuzilishida qo‘llanadigan harflar, turkiy qabilalarning bayoni, turk tilining xususiyatlari, tilda va lahjalarda bo‘ladigan farqlar haqida aytib o‘tadi. Asarning lug‘at qismida 7500 so‘z sakkizta bo‘limga ajratib izohlanadi. Mahmud Qoshg‘ariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy usuldan foydalangan.

Shuni ham aytish joizki, turkiy qabila va xalqlarning eng qadimgi og‘zaki adabiy yodgorliklarini o‘rganishda “Devonu lug‘atit turk” dagi adabiy materiallar katta ahamiyatga ega. Asardagi og‘zaki adabiyot namunalarining ko‘pi mavsum qo‘shiqlari va peyzaj lirikasi janrlariga kiradi. Bular qadim zamonlardagi kishilarning tabiat hodisalari haqidagi tushunchasi va bu hodisalarga munosabatini ifodalaydi. Asardagi so‘zlarga nazar tashlasak, ularning sof turkona ekanligini tezda fahmlaymiz. Aynan shuning uchun ham u turkiy tillar o‘tmishini yorituvchi o‘xhashi yo‘q asar hisoblanadi. Mahmud Qoshg‘ariy asaridan o‘rin olgan turkiy so‘zlar bugungi kunda ham saqlanib qolgan bo‘lib, tilimizda unchalik o‘zgarmasdan shundayligicha ishlatilib kelinmoqda. Bunga misol keltiradigan bo‘lsak, “un-un, tovush, ovoz, sado”; gapirish, kuylash, qichqirish, yig‘lash va shu kabilar vaqtida yuzaga keladigan va eshitish a’zolari qabul qila oladigan hodisa; qozoqlar “dibis” turklar esa “ses” deb ishlatadigan “un” so‘zi bugungi kunda badiiy san’atimizda ko‘proq ishlatiladi. Mahmud Qoshg‘ariyning asarida “tilku” ya’ni “tulki” so‘zi ham ko‘zga tashlanadi. Bu so‘z bilan xalqimiz qiz bolaga kinoya qilganlar. Biron xotin tug‘ganda doyadan “tilkumi tug‘di azu bo‘rimu – tulki tug‘dimi yoki bo‘rimi” deb so‘ralgan. Ya’ni qizmi yoki o‘g‘ilmi degan ma’noda ishlatilgan. Qizlar aldoqchi va yalinchoq bo‘lganlari uchun tulkiga, o‘g‘il bolalar botir bo‘lgani uchun bo‘riga o‘xhatilgan.¹

Bu an’ana turkiylarning ko‘pchiligida, ayniqsa, qozoq, tatar, ozarbayjon va turklarda deyarli saqlanib qolmagan, biroq bu usulda so‘rash o‘zbeklarning odat tusiga kirgan.

“Devonu Lug‘atit Turk” – o‘z davrining ilk ilmiy lug‘ati, birinchi mukammal tilshunoslik manbai bo‘lib, bugungi kunda ham tilshunoslar, tarixchilar va madaniyatshunoslar uchun qimmatliligidha qolmoqda.

Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad al-Qoshg‘ariy XI asrda yashagan mashhur olim, tilshunos, geograf va etnograf bo‘lgan. U bugungi Qashg‘ar (hozirgi Shinjon-

¹ R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, R.Raupova, M.Qurbanova, M.Abuzalova, D.Yo’ldosheva “Hozirgi o‘zbek tili” Toshkent, 2017-yil.

Uyg'ur muxtor viloyati) hududida tug'ilgan. Otasi Husayn ibn Muhammad zamonasining obro'li kishilaridan bo'lib, Mahmud Qoshg'ariyning ta'lim olishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratgan.

Mahmud Qoshg'ariy bir qancha tillarni chuqur bilgan, xususan, arab, fors va turkiy tillarda mukammal bilimga ega bo'lgan. Uning asosiy maqsadi turkiy tillarning boyligini dunyoga ko'rsatish, xususan, arab olimlariga turkiy tillarning o'ziga xos va mukammal tizimga ega ekanligini isbotlash bo'lgan.

Mahmud Qoshg'ariy asarni arab olimlari uchun yozganini o'zi ham kirish so'zida ochiq aytadi. Uning fikricha, turkiy tillar arab tilidan kam emas, balki ko'plab jihatlarda boyroqdir. Shuning uchun ham u:

Turkiy tillarning leksik boyligini ko'rsatish;

Arablar uchun turkiy tillarni o'rganishda qo'llanma yaratish;

Turkiy xalqlarning madaniy qadriyatlarini saqlab qolish;

O'z davrida mavjud bo'lgan barcha turkiy shevalarni hujjatlashtirish maqsadida asarni yaratgan.

Asarning yozilishi 1072–1074-yillarga to'g'ri keladi. Mahmud Qoshg'ariy uni Bag'dod shahrida yozgan va Abbosiylar xalifasiga taqdim etgan.

Asar 3 jilddan iborat bo'lib, taxminan 7500 ga yaqin turkiy so'zning arab tilidagi tarjimasi va izohi keltirilgan. Har bir so'z:

- Leksik izoh;
- Fonetika;
- Sintaksis;
- Foydalanish konteksti;
- Etnografik va folklor namunalar bilan boyitilgan.

Mahmud Qoshg‘ariy har bir so‘zni nafaqat tarjima qiladi, balki uning qanday ishlatalishini misollar bilan ko‘rsatadi. Ko‘plab so‘zlarga maqollar, she’rlar, xalq iboralari ilova qilingan. Bu uslub asarni nafaqat lug‘at, balki adabiy-antropologik manba darajasiga ko‘taradi.

Asarda Qarluq, O‘g‘uz, Qipchoq, To‘los, Chigil, Yag‘mo, Uyg‘ur, Yettisuv kabi ko‘plab turkiy qabilalar va ularning shevalaridagi so‘zlar keltirilgan. Bu holat bugungi dialektologiya fani uchun noyob faktlar manbaidir.

Mahmud Qoshg‘ariy asarda fonetika, morfologiya va sintaksisga oid terminlarni, tahlillarni qo‘llagan. U arab grammatikasi asosida turkiy tillarni tahlil qilgan bo‘lsa-da, o‘ziga xos metodik usullarni ishlab chiqqan.

Xalq og‘zaki ijodining namunalarini saqlab qolgan

Asarda minglab maqollar, topishmoqlar, hikmatli so‘zlar, baytlar mavjud. Ular til tarixini o‘rganishda ham, xalq ruhiyatini anglashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Asarning 3-jildida Mahmud Qoshg‘ariy ilk marta turkiy xalqlar yashaydigan hududlarning xaritasini chizgan. Bu xarita, “turklar dunyosining markazi” Qashg‘ar deb ko‘rsatilgan bo‘lib, tarixiy geografiya fani uchun bebahon manbadir.

“Devonu Lug‘atit Turk” asari qadimgi turkiy tillarning rivojlanishini o‘rganishda, ularning o‘zaro aloqalari, grammatika tizimi, fonetik xususiyatlari, sintaksis va semantikasini aniqlashda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi tilshunoslikda:

Etnolingvistika

Tarixiy tilshunoslik

Qiyosiy tilshunoslik

Turkologiya yo‘nalishlarida bu asar doimiy foydalilaniladi.

Asar bir necha asr davomida unutilgan edi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida uni turk, arab va yevropa olimlari qayta kashf etishdi.

1915–1917-yillarda Istambulda Ali Amiri tomonidan topilgan yagona nusxa asosida nashr etilgan.

1939-yili Besim Atalay tomonidan zamonaviy turk tiliga tarjima qilindi.

1960–1970-yillarda turli arab va turk olimlari asarni ingliz, rus, nemis tillariga tarjima qildi.

O‘zbek tilshunoslari – A. Madvaliyev, A. Rustamov, Sh. Rahmatullayev, E. G‘oziyev singari olimlar tomonidan asar chuqur o‘rganilib, qadimgi turkiy tilshunoslik bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar, maqolalar yozilgan.

Bugungi kunda asarning raqamli nusxalari yaratilgan, onlayn tadqiqotlar uchun imkoniyatlar kengaygan. Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi ko‘plab tilshunoslik markazlarida ushbu asar asosida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu Lug‘atit Turk” asari turkiy tillar tarixining, xalq og‘zaki ijodi va madaniyatining, tilshunoslikning eng muhim manbalaridan biridir. Bu asar nafaqat o‘z davrining madaniy-ma’naviy hayotini aks ettirgan, balki kelajak avlodlar uchun ham ulkan ilmiy va ma’naviy xazina bo‘lib qolmoqda.

“Devonu Lug‘atit Turk” bugungi kunda:

Tarixiy tilshunoslikka asos bo‘layotgan;

Etnik madaniyatni saqlab qolish vositasi;

Milliy tafakkurni o‘rganish manbasi sifatida xizmat qilmoqda.

Shu bois ham bu asarni o‘rganish, uni yosh avlodga yetkazish, undagi boylikni zamonaviy ilm-fan bilan uyg‘unlashtirish eng dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, R.Raupova, M.Qurbanova, M.Abuzalova, D.Yo'ldosheva "Hozirgi o'zbek tili" Toshkent, 2017-yil.
2. Devonu lug'atit turk 1960, I- Mahmud Qoshg'ariy "Turkiy so'zlar devoni"/ Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutalliboyev. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1960.
3. Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'ati-t-turk"/ Nashrga tayyorlovchisi Qosimjon Sodiqov. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2017.
4. Natan Mallayev "O'zbek adabiyoti tarixi" "O'qituvchi" nashriyoti – 1965.
5. Nasimxon Rahmonov "O'zbek adabiyoti tarixi" o'quv qo'llanma "Sano-standart" nashriyoti. Toshkent - 2017.
6. K. Marqayev "O'zbek etnonimlari. - Qarshi:Intellekt, 2021.